



UDK-8-1751 R-95

Shaxnoza RUSTAMOVA,
Toshkent davlat transport universiteti dotsenti
E-mail: shahnoza.rustamova.1983@gmail.com

SamDCHTI professori U.Qarshibayeva taqrizi ostida

TILNING MADANIY KONTEKSTDAGI ROLI (TARJIMADA)

Annotatsiya

Mazkur maqola tarjima va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tahlil qilib, tilning madaniy kontekstdagi ahamiyatini o'rganadi. Tarjima so'zlarni bir tildan boshqasiga o'tkazish bilangina cheklanmay, balki madaniy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlarining almashinuvi va tushunilishiga xizmat qiladi. Unda madaniy farqlar, tarjimonning madaniyatlararo muloqotdagi roli hamda adabiy tarjima jarayonida kontekstual farqlar va iboralarni tarjima qilishda uchraydigan qiyinchiliklar yoritiladi. Shuningdek, ishimizda tarjimaning madaniy kommunikatsiya va globalizatsiya jarayonida milliy identifikatsiyani saqlashdagi o'rni muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Tarjima, madaniyat, madaniy kontekst, madaniy farqlar, til va madaniyat, madaniyatlararo aloqalar, adabiy tarjima, madaniy qadriyatlar, globalizatsiya, madaniy identifikatsiya, madaniy kommunikatsiyalar.

РОЛЬ ЯЗЫКА В КУЛЬТУРНОМ КОНТЕКСТЕ (В ПЕРЕВОДЕ)

Аннотация

Данная статья анализирует взаимосвязь между переводом и культурой, изучая значение языка в культурном контексте. Перевод не ограничивается только передачей слов с одного языка на другой, но также служит средством обмена и понимания культурных ценностей, традиций и обычаев. В статье рассматриваются культурные различия, роль переводчика в межкультурной коммуникации, а также сложности, возникающие при переводе контекстуальных различий и устойчивых выражений в литературных переводах. Кроме того, обсуждается роль перевода в сохранении национальной идентичности и его значение в межкультурной коммуникации в условиях глобализации.

Ключевые слова: Перевод, культура, культурный контекст, культурные различия, язык и культура, межкультурные связи, литературный перевод, культурные ценности, глобализация, национальная идентичность, культурная коммуникация.

THE ROLE OF LANGUAGE IN THE CULTURAL CONTEXT (in translation)

Annotation

This article analyses the relationship between translation and culture, examining the significance of language in the cultural context. Translation is not limited to the transfer of words from one language to another but also serves as a means of exchanging and understanding cultural values, traditions, and customs. The article explores cultural differences, the role of the translator in intercultural communication, as well as the challenges arising from translating contextual nuances and idiomatic expressions in literary translations. Furthermore, it discusses the role of translation in preserving national identity and its importance in intercultural communication within the context of globalisation.

Key words: Translation, culture, cultural context, cultural differences, language and culture, intercultural connections, literary translation, cultural values, globalization, national identity, cultural communication.

Kirish. Tarjima va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik har doim diqqatga sazovor bo'lib kelgan. Til nafaqat aloqa vositasi, balki uning o'zi ham muayyan bir jamiyatning madaniy, tarixiy va ijtimoiy qadriyatlarini ifodalovchi, shakllantiruvchi elementdir. Shuning uchun, tarjima jarayonida tilning madaniy kontekstdagi o'rnini to'g'ri anglash muhim ahamiyatga ega. Tarjima faqat so'zlarning to'g'ri o'rinashtirilishi emas, balki madaniy ma'lumotlarning, an'analarning, ijtimoiy normativlarning ham uzatilishi jarayonidir.

Madaniyatlararo kommunikatsiya, jumladan tarjima, ikki til va madaniyat o'rtasida kelishuvni ta'minlaydi. Biroq, har bir til o'ziga xos madaniy kodlarga, tasavvurlarga va qadriyatlar tizimiga ega bo'lib, bu tarjimonning ishini murakkablashtiradi. Misol uchun, bir tilning so'zlari boshqa tilda to'g'ri tarjima qilinsa ham, ularning ortida yotgan madaniy anglash va kontekstlar bir xil bo'lmastligi mumkin. Shu sababli, tarjimonlar nafaqat til bilimiga, balki madaniyatlararo farqlarni tushunishga ham ega bo'lishi kerak. Tarjima nafaqat lingvistik jarayon, balki madaniy almashuv hamdir. Bu, o'z navbatida, tilni faqat grammatik yoki leksik jihatdan emas, balki uning kontekstual va madaniy boyliklari nuqtai nazaridan ham o'rganishni talab qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tilning madaniy kontekstdagi roli — bu til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini, til orqali madaniy merosning qanday saqlanib, avloddan-avlodga o'tishini, shuningdek, tilning ijtimoiy va madaniy jarayonlardagi o'rnini o'rganadi. Madaniyat, tilni faqat aloqa vositasi sifatida

emas, balki dunyoqarash, qadriyatlar, urf-odatlar va tarixiy tajribalarni ifodalovchi vosita sifatida ham ko'radi.

Til madaniyatni shakllantiradi va uni ifodalaydi. Har bir til, o'ziga xos ijtimoiy tizimni, qadriyatlar va dunyoqarashni aks ettiradi. Misol uchun, bir xalqning qadriyatlari, din, urf-odatlar va tarixiy tajribalarini ifodalovchi so'zlar va iboralar til tizimida mavjud. O'zbek tilida milliy hayotga oid ko'plab so'zlar, masalan, "mehr", "orzu", "vatan" kabi atamalar mavjud bo'lib, ular madaniyatdagi muhim tushunchalarni aks ettiradi.

Til, avvalo, madaniy an'analarni saqlash va avloddan-avlodga o'tkazish vositasidir. Hozirgi kunda yozma va og'zaki adabiyot, til orqali tarixiy tajribalar, xalq aqllari, she'rlar va hikoyatlar orqali madaniyatni saqlashda asosiy rol o'ynaydi. Dastlabki xalq hikoyalari va afsonalar, shu jumladan, ularning tilida jamiyatning qadriyatlari aks etgan.

Madaniy kontekstdagi tilning roli, madaniyatning rivojlanishi va o'zgarishiga qarab, o'zgarib boradi. Masalan, zamonaviy texnologiyalar va globalizatsiya tilning o'zgarishiga olib keladi. Bu o'zgarishlar, tilni zamonaviy hayotga moslashtirsa-da, madaniyatni saqlash va rivojlantirishda qiyinchiliklar yaratadi. Internetda yangi atamalar va slenglarning paydo bo'lishi, madaniyatning globalizatsiyasi va uning mahalliy tillarga ta'siri, tilning madaniy rolini yanada murakkablashtiradi.

Til, insonning madaniy identifikatsiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Til orqali inson o'zligini, o'zining qaysi madaniyatga mansubligini va qanday tarixiy ta'sirlarni qabul qilganini bildiradi. O'zbek tilida so'zlashish nafaqat madaniy

qadriyatlarini ifodalash, balki milliy o'zlikni saqlash va mustahkamlash vositasidir.

Madaniyatdagi an'analar va urf-odatlar, til orqali ifodalanadi. Masalan, an'anaviy o'zbek bayramlari, marosimlar va turmush tarziga oid so'zlar va iboralar tilning o'zida mavjud. Bu so'zlar, xalqning tarixiy va madaniy kontekstini tushunishga yordam beradi. Har bir xalqning tilida o'ziga xos an'analar va qadriyatlar mavjud bo'lib, ular shu xalqning dunyoqarashi va madaniyatini aks ettiradi. Shu tarzda, til va madaniyat bir-birini to'ldiradi va bir-birini shakllantiradi. Tilni o'rganish, faqat so'zlar va grammatik qoidalarini o'rganish emas, balki madaniyatni va uning asosiy tushunchalarini o'rganishdir.

Ishda qiyosiy-tarixiy, tavsifiy va lingvokulturologik tahlil usullari qo'llanilgan. O'zbek va xorijiy olimlarning til va madaniyat munosabatlari, lingvokulturologiya va etnolingvistika sohalaridagi ilmiy ishlari chuqur tahlil qilindi.

Til va madaniyat o'rtasidagi aloqalar masalasi ko'plab olimlar tomonidan turli nuqtai nazarlardan o'rganilgan. Masalan, Sapir-Uorf gipotezasi tilning inson tafakkuri va dunyoqarashiga ta'sirini ta'kidlagan [2]. V.Gumboldt esa tilni "xalq ruhi"ning aks-sadosi sifatida talqin qilgan [3]. Zamonaviy tilshunoslikda esa A.Vejbitskaya [4] va V.A.Maslova [5] kabi olimlarning ishlari lingvokulturologiyaning rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan.

O'zbek tilshunosligi sohasida esa N.Mahmudov [6], A.Nurmonov [7], Sh.Safarov [8] kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari o'zbek tilining etnomadaniy xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Ularning ishlari o'zbek tilining leksik va grammatik tizimida milliy dunyoqarash, qadriyatlar va mentalitetning ifodalanishini o'rganadi.

Til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi turli nazariy yondashuvlar asosida ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, o'zbek tili misolida bu masalaning kompleks tahlili hozirgacha to'liq amalga oshirilmagan. Ushbu tadqiqot aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Muhokama. Tarjima va madaniyatning bir-biriga ta'siri haqida ilk marta fikr yuritgan olimlardan biri "Eugene Nida" bo'lib, u "tarjima ekvivalentligi" va "madaniyatlararo ekvivalentlik"ni ta'riflab, tarjima jarayonida faqat so'zma-so'z ekvivalentlikni emas, balki madaniy kontekstning ham hisobga olinishi zarurligini ta'kidlagan. Nida tarjimadagi asosiy muammo, ayniqsa, madaniy elementlar bilan bog'liq bo'lganida, tilning faqat grammatik tuzilmalari emas, balki madaniy konteksti ham muhimligini ko'rsatgan. Lawrence Venuti "tarjimonning ko'rsatilganlik (visibility)" nazariyasini ishlab chiqqan. Venuti tarjimadagi madaniy tafovutlarni ko'rsatishning, tarjimonning o'zini va madaniyatini namoyon qilishning muhimligini ta'kidlagan. Bu yondashuv tarjimaning o'zi ham madaniy ifoda va madaniyatlararo muloqot shakli ekanligini anglatadi.

Madaniyatlararo tafovutlarni tahlil qiluvchi tadqiqotlar ko'pincha tilning ijtimoiy, psixologik va tarixiy kontekstiga asoslanadi. Basil Hatim va Ian Mason o'zlarining "Discourse and the Translator" asarida tilning faqat so'zlar va grammatik qoidalar bilan bog'liq bo'lmashini, balki madaniy o'zgarishlarni, urf-odatlarini va kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabatlarni aks ettirishni ham talab qilishini ko'rsatganlar. Hatim va Mason tarjima jarayonini madaniy to'qnashuvlar sifatida ko'radilar, bu esa tarjimonning madaniy tafovutlarni qanday yengishiga bog'liq. Yuriy Lotman va Aleksey S.Zholkovskiy kabi tilshunolar madaniyatlararo kodlar tizimi sifatida qarashadi va bu tizimlar orqali tarjimonning faqat til bilimi emas, balki madaniy kodlarni to'g'ri o'qish va tushunish qobiliyati ham zarur ekanini ta'kidlaydilar. Madaniyat va til o'rtasidagi bunday aloqalar, ularning fikricha, tarjimaga tilning faqat yuzaki qatlamidan tashqari, uning chuqur qatlamlarini ham tushunishni talab qiladi.

Tarjima va madaniyat o'rtasidagi aloqani o'rganishda foydalaniladigan metodologiyalar odatda quyidagi usullarga asoslanadi:

Leksik tahlil – tarjima jarayonida so'zlarning to'g'ri tanlanishi va ularning madaniy kontekstdagi ma'nolari muhim ahamiyatga ega. Leksik tahlil madaniy yondashuvlar va ijtimoiy normativlarni tarjimada qanday aks ettirishini o'rganishga yordam beradi.

Kontekstual tahlil – Til va madaniyatni tushunishda kontekstual tahlilning ahamiyati katta. Bu metodologiya tarjima jarayonida madaniy belgilarni va ularning tilga qanday ta'sir qilishini o'rganishga qaratilgan.

Intertekstual tahlil – Madaniyatlararo aloqalarni tahlil qilishda intertekstual tahlil metodologiyasidan foydalanish ham foydalidir. Bu usul, madaniyatlararo kontekstdagi badiiy yoki ilmiy asarlarni o'zaro taqqoslash va ularning tarjima jarayonida qanday o'zgarishini ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Kross-kultural tahlil – Madaniyatlararo farqlarni o'rganish uchun kross-kultural tahlil metodologiyasi ishlatiladi. Bu usul tarjimaning madaniy o'zgarishlar va tafovutlarni qanday ifodalashini aniqlashga yordam beradi.

Madaniy tafovutlarni o'rganishda ko'plab misollar keltirish mumkin. Misol uchun, ingliz tilidagi "Thanksgiving" bayrami bir nechta madaniy elementlar bilan bog'liq, lekin bu bayram boshqa tillarda va madaniyatlarda o'ziga xos ekvivalentga ega emas. Shu sababli, "Thanksgiving"ni boshqa tilda tarjima qilishda, faqat bayramning tarixiy va diniy kontekstlarini emas, balki unga bog'liq madaniy an'analar va qadriyatlarini ham hisobga olish zarur. Yana bir misol – ingliz tilidagi "Privacy" tushunchasi. Bu so'zning tarjimasi boshqa madaniyatlarda, masalan, o'zbek yoki arab tillarida hamma joyda aniq ekvivalentlarga ega bo'lmashligi mumkin, chunki ushbu madaniyatlarda "xususiy hayot" tushunchasi boshqacha qaraladi.

Natija. Til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik ikki tomonlama ta'sirga ega. Bir tomondan, til madaniyatni ifodalaydi, boshqa tomondan esa madaniyat tilni shakllantiradi. Har bir til o'ziga xos tarixi, qadriyatlari, va urf-odatlar bilan ajralib turadi. Masalan, turli xalqlarda madaniyatga oid kontsepsiyalar va tushunchalar til yordamida uzatiladi. Shuning uchun, biror xalqning tilini o'rganganimizda, shu xalqning madaniyati va dunyoqarashi haqida ham ma'lumotga ega bo'lamiz.

Tilning madaniy kontekstdagi roli, shuningdek, identifikatsiyani belgilashda katta ahamiyatga ega. Til orqali insonlar o'zlarini qanday his qilishlari, qaysi jamiyatga mansubligini qanday anglashlari hamda o'zligini qanday ifodalashlari ko'rinadi. Madaniyatni tahlil qilishda tilning ahamiyatini tushunish, biror jamiyatning tarixiy va madaniy rivojlanish yo'nalishlarini anglashda yordam beradi.

Globalizatsiya jarayonlari va madaniy almashuv tilning o'zgarishiga ham olib keladi. Bu, o'z navbatida, tilni yangi shakllarda ishlatish, yangi atamalarini qabul qilish va eski madaniy elementlarni yangilashni anglatadi. Til orqali bir xalqning madaniyati boshqalarga uzatilishi va yangi madaniy kontentni olish jarayoni, jamiyatlar o'rtasida aloqalar o'rnatishni va madaniyatlarini o'zaro tushunishni osonlashtiradi.

Har bir jamiyatda o'ziga xos madaniy an'analar mavjud bo'lib, ular til orqali uzatiladi. O'zbek tilida, masalan, ko'plab qadimiy an'analarga oid so'zlar va iboralar mavjud bo'lib, ular jamiyatning qadriyatlari va tarixi haqida ma'lumot beradi. Til yordamida madaniyatni o'rganish va unga nisbatan hurmatni oshirish mumkin.

Tilni ijtimoiy kontekstda tahlil qilish, uning ijtimoiy roli va madaniyatning rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini tushunishga yordam beradi. Jamiyatning o'ziga xos madaniy shakllarini aks ettiruvchi til elementlari, ularning ijtimoiy hayotdagi o'rnini va ahamiyatini tushunishga xizmat qiladi. Shu tariqa, til madaniyatning saqlanib qolishi va yangi avlodga yetkazilishi uchun vosita sifatida xizmat qiladi.

Xulosa. Tarjima va madaniyat o'rtasidagi aloqalar kompleks va ko'p qirrali bo'lib, tilni faqat grammatik yoki leksik jihatdan emas, balki uning madaniy kontekstdagi roli nuqtai nazaridan ham o'rganish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Adabiyotlar tahlili va metodologiyalar yordamida tarjimaning madaniy tafovutlarni qanday yengishi, til va madaniyatning o'zaro ta'siri qanday shakllanayotganini tushunish mumkin. Madaniyatlararo tafovutlar va kontekstual tahlillar tarjimaning eng murakkab va kreativ qismlarini tashkil etadi, bu esa tarjimonning madaniy anglash va ijtimoiy tushunish qobiliyatlarini rivojlantirishni talab qiladi.

1. Kramsch, C. Language and culture. Oxford University Press.1998.
2. Whorf, B. L. Language, thought, and reality: Selected writings of Benjamin Lee Whorf. MIT Press. 1956.
3. Von Humboldt, W. On language: On the diversity of human language construction and its influence on the mental development of the human species. Cambridge University Press. 1999.
4. Wierzbicka, A. Understanding cultures through their key words: English, Russian,
5. Polish, German, and Japanese. Oxford University Press. 1997.
6. Маслова, В. А. Лингвокультурология. Академия, 2001.
7. Махмудов, Н. Тилинг мукамал тадқиқи йўллари излаб. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2012.
8. Нурмонов, А. Ўзбек тили фонологияси ва морфологияси. Тошкент: Ўқитувчи, 2012.
9. Сафаров, Ш. Прагматингвистика. Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008.
10. Исмоилов, И. Ўзбек тили этномаданий лексикаси. Фан ва технология, 2014.
11. Ҳақимов, М. Ўзбек прагматингвистикалари асослари. Тошкент: Академнашр, 2013.
12. www.ziyounet.uz
13. www.aim.uz
14. www.cyberleninka.ru
15. www.arxiv.uz